

Mamashukurov Ozodbek Erkin o'g'li
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, yurtimizda bu borada amalga oshirilgan ishlar, mutafakkir bobolarimiz tomonidan ilgari surilgan fikrlar aks ettirilgan.

Kalit so'z: Kitobxonlik madaniyati, mutolaa zavqi, tafakkur, ilm-ma'rifat, badiiy asar, aqliy salohiyat

РАЗВИТИЕ ЛИЧНОСТИ И КУЛЬТУРА ЧТЕНИЯ

Мамашукуров Озодбек сын Еркина
Наманганский государственный университет

Аннотация: в данной статье отражено совершенствование культуры чтения, работа, проводимая в этом направлении в нашей стране, и идеи, выдвинутые нашими великими мыслителями.

Ключевые слова: культура чтения, удовольствие от чтения, художественное произведение, наука, мышление, просвещение, умственные способности.

PERSONALITY DEVELOPMENT AND READING CULTURE

Mamashukurov is the son of Ozodbek Erkin
Namangan State University

Annotation: in this article, the improvement of reading culture, the work being done in this regard in our country, and the ideas put forward by our great thinkers are reflected.

Key words: reading culture, pleasure of reading, artistic work, science, thinking, enlightenment, mental capacity

Olimlar, ziyorolar mamlakat va millat kelajagi uchun chuqur qayg'urganlarni yaqin-yaqingacha bir narsa qiyab keladi: nega yoshlarimiz, umuman, fuqarolarimiz o'rtasida kitobxonlik madaniyati pasayib ketdi, nima uchun yerdan ko'kka ko'taradigan, bizni barkamollik sari yetaklaydigan, insonlar qalbiga yoruglik va iliqlik kiritadigan, oq bilan qora, yaxshilik bilan yomonlik, vayronkorlik bilan bunyodkorlikning farqini ongli ravishda anglatishga yordam beradigan, insonlar tomonidan yaratilgan eng noyob kashfiyat – kitobning qadri tushib ketmoqda?

Sharqda axloq-odob orasida buyuk asarlar yaratgan Muhammad Jabalrudiyning kitob haqidagi quyudagi fikrlariga bir esga olaylik: “Ey aziz! Kishi uchun kitobdan azizroq va yoqimliroq suhbatdosh yoqdir. Kitob fasohat, balog’atda, latofatda tengi yuq, munofiqlikdan holi hamrohdir. Yolg’izlikda va g’amli ayyomlarda munis ulfatdir. Unda na nifoq bor-u, na gina. U shunday hamdamki, so’zlarida yolg’on va xato bo’lmaydi. Suhbatidan esa kishiga malollik yetmaydi. U o’z do’stining dilini og’ritmaydi. Yuragini esa siqmaydi. U shunday rafiqdirki, kishi orqasidan g’iybat qilib yurmaydi. Uning suhbatidan senga shunday fayzli foydalar yetadiki, bunday foydani odamlardan topolmaysan. Aksincha, aksari odamlar suhbatidan kishiga zarar yetadi. Kitobdek do’st ichida barcha ilm-u hilm mujassamki, u kishilarni o’tmishdan va kelajakdan ogoh qilib turadi. Shuning uchun ham bizning yurtimizda ilm olish, kitob yozish, ijod qilish har doim ham millatning mavjudligi va u nimaga qodir ekanligi ko’rsatuvchi muqaddas tushuncha hisoblanadi. Arastu Hakimdan Abu Ali ibn Sinoga, Aflatundan Abu Rayhon Beruniygacha, Jaloliddin Rumiydan, Alisher Navoiygacha, Sohibqiron Amir Temurdan Muhammad Sharif Gulxaniygacha yuzlab, minglab mutaffakirlarning shakllanishi, dunyoga tanilishi, zamonlar oshsada ahamiyati yoqolayotgan tadqiqot-u kashfiyotlari faqat va faqat kitob orqali yuz berdi. Ularning bugungi avlod tomonidan chuqur o’rganilishi, ular ilmiy-ma’rifiy bisotiga bot-bot murojaat qilishning sababi ham mutaffakirlarimiz tomonidan yaratilgan kitoblar tufaylidir.

Endi bugungi kitoblar, ayniqsa badiiy asarlar xususida ayrim fikrlar bayon etsak: ma'lumki, kitob umuman, badiiy asar kishilarning dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy salohiyatini manaviy barkamolligini ta'minlashi lozim. Darhaqiqat bunday asarlar yaratilmoqda, xalqimiz, ayniqsa, yoshlарimiz ularni o'qishdan charchamayapdi. Ammo, bugungi asarlarning barchasiga shunday baho qo'yish mumkin emas. Ayrim asarlar yaxshi niyatda yaratilyotgan bo'lsada, ammo ular “teskari samara” bermoqda. Turli salbiy ko'rinishlar, zo'ravonlik, ur-yiqit odamlarda “olamon fikrlash” darajasini ko'tarishga urunish, fahsh illatlarni kabi holatlar ba'zi asarlarda avj olayotganini guvohi bo'imoqdamiz. Mutafakkir – allomalarimiz johillikning birinchi belgisi go'zallikni ko'rmaslikdir deydilar. Haqiqatdan ham shunday. Atrofimizda shuncha yangiliklar, yangilanishlar, islohotlar sodir bo'imoqda, odamlarmiz tafakkur tarzi o'zgarmoqda. Ana shu ijobjiy holatlarni badiiy jihatdan pishiq asarlar orqali xalqimizga ayniqsa yoshlарimizga yetkazish juda to'g'ri bo'lar edi.

Ta'kidlanishicha bugungi kunda matbuot, noshirlik va axborot sohasida tegishli huquqiy asos yaratilgan bo'lib, o'ndan ortiq qonun, o'ttizdan ortiq qonun hujjatlari yaratilgan. 1667 ta matbaa korxonalari, 118 ta nashriyot davlat ro'yxatiga olingan. Zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi o'n to'rtta hududiy birlik axborot – markazi, tuman va shahar markazlaridagi ta'lim muassasalarida 200 ga yaqin axborot-resurs markazlari tomonidan aholiga axborot-kutubxona xizmatlari hamda “kitob olami”, “sharq ziyokori” va “

o'zdavkitobsavdota'minot" majmualari tomonidan kitob savdosi xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilgan .

Kitob o'qish barchamizni ma'naviy olamimizni boyitadi, so'zlashuv madaniyatimizni oshiradi. Ayrim hollarda muqaddas o'zbek tilimizdagi ayrim vatandoshlarimiz xizmati tufayli dag'allashib, kambag'allashib, borayotganligini oldini olish uchun ham kitob o'qish lozim. Vaholanki, bizning o'zbek tilimiz dunyodagi eng boy tillar qatoriga kiradi. A.S. Pushkin butun ijodi davomida jami: 21 197 ta so'z qo'llagan bo'lsa, Sheksper asarlarida jami: 20 000 dan ortiq so'z qo'llanilgan. Ispan olimlari Servantis ijodidan 18 000 so'z qo'llanganligi haqida ma'lumot bergenlar. Buyuk bobomiz Alisher Navoiy asarlarida qo'llanilgan so'zlar nomi 26 000 dan ortiq ekan. Ana shuncha milliy boyligimizni avaylab-asrash uchun ham kitob o'qish lozim. Darhaqiqat, kitobxonlik madaniyatini oshirish davr talabi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev[1] 2017-yil 12-yanvar kuni "Kitob mahsulotlarini chop etish hamda tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida" gi farmoishni imzoladilar. Bugungi kunda maktablarda, turli o'quv maskanlarida, aholi gavjum bo'lgan joylarda kitob yarmarkalari o'tkazilmoqda. Bundan tashqari, "yilning eng yaxshi kitobi", "Eng yaxshi kitobxon oila", "Yilning eng yaxshi bolalar kitobi", "Yilning eng yaxshi audio kitobi", "Yilning eng yaxshi elektron kitobi" kabi tanlovlар o'tkazish, kitob bayramlarini uyushtirish orqali yoshlarni kitobga bo'lgan muhabbatini oshirishga harakat qilinmoqda . Albatta bularni bari kelajagimiz poydevori bo'lmish yoshlarni kitob o'qishga bo'lgan munosabatini yaxshilash uchun qilinayotgan ishlar sarasiga kirib va hozirda bu ishlar o'zining ijodiy samarasini bermoqda chunki barchalarimiz bilamizki, Dedro aytganidik: "Odamlar o'qishdan to'xtashlari bilan fikrlashdan ham to'xtaydilar".

Haqiqatdan ham, kitob barchamizni ezgulikka undaydigan, oldimizda turgan barcha muammolarni hal etishga yordam beradigan kuchdir. Shuning uchun ham yurtimizda kitob bilan oshno bo'lgan, kitobni suygan, kitob yozgan, kitobni muqaddas bilib, qorachig'idek asraganlarni ziyoli deb ataganlar. Ziyoli – Nur tarqatuvchi u o'zining xatti-harakatlari , foaliyati bilan jamiyatni nurlantiruvchi ma'naviy-ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi hisoblangan. Bunga uzoq va yaqin tariximizdan misollar ko'p. Masalan,[2] ma'rifatparvar vatandoshimiz Is'hoqxon Ibrat o'z uyida kattagina, boy kutubxona tashkil qiladi va uni "kutubxonai is'hoqiya", deb ataydi. Ibrat arxividagi kitoblar ro'yxati shuni tasdiqlaydiki, kutubxonada ta'lim-tarbiya va o'qitishga oid o'zbek, rus, turk, tatar, fors-tojik tillarida ko'plab kitoblar bo'lgan. Bu kutubxonadan nafaqat o'zi, shuningdek, qishloq aholisi ham unumli foydalangan. Is'hoqxon Ibrat o'z maktabi o'qituvchilarni kutubxonada saqlanuvchi kitoblar bilan ta'minlagan. Kutubxonaning mifik o'qituvchilariga bag'ishlangan qismida Sayidrasul Saidazizovning "Ustodi avval", Abdulla Avloniyning "Birinchi muallim", "Turkiy Guliston yoxud Ahloq", Rustambek Yusufxoji o'g'lining "Rahbari hisob" kabi ko'plab o'quv qo'llanmalari saqlangan. Ibrat kutubxonasi doimiy ravishda kattalashib borgan. Bu kutubxona a'zolarining kitob olish